

TALABALARNI BOSHQARISH TIZIMIDA KONSEPTUAL MODELLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Tuxtayev Soyib Safarovich

Qarshi davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti dekani

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni boshqarish tizimini takomillashtirishda konseptual modellashtirishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan yoritiladi. Talabalarni boshqarish jarayoni pedagogik tizim sifatida qaralib, unda konseptual yondashuvning ahamiyati asoslanadi. Maqolada konseptual modellashtirishning mohiyati, uning pedagogik boshqaruv tizimidagi o'rni hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarni boshqarishda tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: talabalarni boshqarish, pedagogik boshqaruv, konseptual model, ta'lim menejmenti, metodologik yondashuv.

Аннотация. В данном тезисе научно освещаются теоретико-методологические основы концептуального моделирования в совершенствовании системы управления студентами в высших образовательных учреждениях. Процесс управления студентами рассматривается как педагогическая система, в рамках которой обосновывается значимость концептуального подхода. В статье анализируется сущность концептуального моделирования, его роль в системе педагогического управления, а также факторы, влияющие на эффективность управления. Кроме того, на основе интеграции системного, деятельностного и компетентностного подходов в управлении студентами формулируются научно обоснованные выводы.

Ключевые слова: управление студентами, педагогическое управление, концептуальная модель, образовательный менеджмент, методологический подход.

Abstract. This thesis examines the theoretical and methodological foundations of conceptual modeling in improving the student management system in higher education institutions. The process of student management is considered as a pedagogical system, within which the significance of a conceptual approach is substantiated. The paper analyzes the essence of conceptual modeling, its role in the system of pedagogical management, as well as the factors influencing management effectiveness. In addition, scientifically grounded conclusions are formulated based on the integration of systemic, activity-based, and competency-based approaches to student management.

Keywords: *student management, pedagogical management, conceptual model, educational management, methodological approach.*

Jahon ta'lim makonida oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Bugungi kunda talabalar faoliyatini tasodifiy yoki faqat ma'muriy usullar orqali boshqarish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois talabalarni boshqarish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirish zarurati ortib bormoqda.

Talabalarni boshqarish pedagogik jarayon sifatida muayyan maqsad, vazifa, mazmun, shakl va natijalarga ega bo'lgan murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu tizimni samarali tashkil etishda konseptual modellashtirish muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Konseptual model talabalarni boshqarish jarayonidagi asosiy elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish, pedagogik ta'sir mexanizmlarini aniqlash va ularni maqsadli ravishda muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Mazkur tezisda talabalarni boshqarish tizimida konseptual modellashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, uning ilmiy-pedagogik ahamiyatini asoslash asosiy maqsad qilib olingan.

Talabalarni boshqarish tizimi oliy ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarning o'quv, tarbiyaviy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayondir. Ushbu tizim faqat nazorat yoki intizomiy choralar majmuasi emas, balki talabalarning shaxsiy faolligini rivojlantirish, ularda mustaqil qaror qabul qilish, muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi⁷².

Pedagogik nuqtai nazardan talabalarni boshqarish subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi. Bu yerda pedagog rahbarlik qiluvchi subyekt sifatida, talaba esa faol ishtirokchi va hamkor sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv talabalarni boshqarishda gumanistik tamoyillarning ustuvorligini ta'minlaydi.

Konseptual modellashtirish – bu pedagogik jarayonni nazariy jihatdan umumlashtirilgan, tizimli va mantiqiy shaklda ifodalash usulidir. Konseptual model orqali talabalarni boshqarish jarayonining asosiy maqsadlari, vazifalari, prinsiplari, mexanizmlari va natijalari o'zaro bog'liq holda aks ettiriladi⁷³.

Talabalarni boshqarish tizimida konseptual modellashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- boshqaruv jarayonining mazmun va tuzilmasini aniq belgilash;
- pedagogik ta'sir vositalarini maqsadga muvofiq tanlash;
- natijalarni oldindan prognoz qilish;
- boshqaruv samaradorligini oshirish.

⁷² Abdullayeva Sh.R. *Pedagogik boshqaruv nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2019.

⁷³ Кларин М.В. *Инноватсии в обучении*. – Москва: Педагогика, 2018.

- Konseptual modellashirishning metodologik asoslari.

Talabalarni boshqarish tizimida konseptual modellashirish qator metodologik yondashuvlarga tayanadi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

Tizimli yondashuv. Ushbu yondashuv talabalarni boshqarishni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qarashni taqozo etadi⁷⁴. Bu yondashuv orqali boshqaruv jarayonidagi har bir komponentning umumiy natijaga ta'siri aniqlanadi.

Faoliyatli yondashuv. Talabalarni boshqarish jarayonida talabaning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bu yondashuv talabalarni passiv ijrochi emas, balki o'z rivojlanishining subyekt sifatida qarashga asoslanadi⁷⁵.

Kompetensiyaviy yondashuv. Konseptual model talabalarda kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Boshqaruv jarayoni natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi.

Talabalarni boshqarish tizimida ishlab chiqilgan konseptual model pedagogik jarayonni maqsadli tashkil etish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Konseptual model orqali pedagogik ta'sir izchillik, tizimlilik va uzviylik asosida amalga oshiriladi⁷⁶.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni boshqarish tizimida konseptual modellashirish pedagogik boshqaruvning nazariy-metodologik poydevorini tashkil etadi. Konseptual model talabalarni boshqarish jarayonini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois talabalarni boshqarish tizimini takomillashtirishda konseptual modellashirishni ilmiy asosda qo'llash zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.R. Pedagogik boshqaruv nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Кларин М.В. Инноватсии в обучении. – Москва: Педагогика, 2018.
3. Новиков А.М. Методология образования. – Москва: Эгвес, 2017.
4. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Академия, 2020.
5. Тоҷибоев В. Оliy ta'limda pedagogik tizimlarni modellashirish. – Toshkent: Universitet, 2021.

⁷⁴ Новиков А.М. Методология образования. – Москва: Эгвес, 2017.

⁷⁵ Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Академия, 2020.

⁷⁶ Тоҷибоев В. Оliy ta'limda pedagogik tizimlarni modellashirish. – Toshkent: Universitet, 2021